

## **YAGONA PEDAGOGIK JARAYONNI TASHKIL ETISHDA O'QUVCHILAR JAMOASINING O'RNI**

**Faxxodova Durdona Mansur qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi 2-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarga jamoa usulida ta'lif berish, jamoaning rivojlanish bosqichlari, boshlang'ich sinf o'quvchilarga ta'lif- tarbiya berish jarayonida jamoaning o'rni haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Jamoa, bosqich, Makarenko, Ya.A. Komenskiy, guruh, jamoa an'analari, rivojlanish, daraja.

## **THE ROLE OF THE STUDENT COMMUNITY IN ORGANIZING A SINGLE PEDAGOGICAL PROCESS**

**Annotation:** This article discusses the team education, the stages of team development, and the role of the team in the process of teaching primary school students.

**Key words:** Team, stage, Makarenko, Ya.A. Comenius, group, community traditions, development, level.

Jamo va jamoa orqali tarbiyalash tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardan biridir. Jamoada uning a'zolari o'rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanishini ta'minlaydi. Lekin har qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab bo'lmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgilar jamoani kishilarning yetarli darajada uyushgan har qanday guruhidan ajratib turadi. «Jamo» so'zi lotincha «kollektivus» so'zining

tarjimasi bo‘lib, yig‘ilma, omma, bиргаликдаги мажлис, бирлашма, гурӯҳ ма’ноларини аংগৃত কৰা।

Jamoa va uni shakllantirish pedagogik faoliyatning maqsadi hisoblanadi. Namuna ko‘rsatish uni shakllantirish vositasi bo‘lib, uning yordamida jamoaning barcha yoki har bir a ‘zosini tarbiyalash yaxshi samara beradi. Umumiy o‘rta ta’lim hamda yangi turdagи ta’lim muassasalarida jamoani shakllantii ish mas’uliyatli vazifa sanaladi. Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo‘g‘in - sinfiar jamoalari sanaladi. Sinf jamoasi doirasida o‘quvchilar o‘rtasida mustahkam shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Bu bilan sinf jamoasi o‘z negizida maktab jamoasining shakllanishi uchun o‘ziga xos poydevor vazifasini bajaradi. Maktab jamoasi tarkibida o‘quvchilar jamoasi bu - ijtimoiy ahamiyatli faoliyatni tashkil etish, shuningdek, umumiy saylov organlari va umumiy javobgarlik, barcha a’zolarning huquq va burchlari tengligi asosidagi o‘zaro birlikka ega o‘quvchilar guruhidir. O‘quvchilar jamoasi pedagog-tarbiyachilar hamda bolalardan iborat.

Jamoaning shakllanish bosqichlarini belgilash shartli hisoblanadi, chunki jamoaning bosqichlari chegara yoki oraliqqa ega emas. Shunga qaramay, pedagogik nuqtai nazardan jamoaning shakllanish bosqichlariga ajratish juda muhimdir. **Bolalar jamoasi rivojlanishning birinchi bosqichi.** Mazkur bosqichda talab faqat pedagoglar tomonidan qo‘yiladi. Bu jamoa rivojlanishining boshlang‘ich nuqtasidir. Ushbu davrdagi jamoa hali tarbiyalovchi jamoa bo‘lmay, balki tashkil etuvchi birlik (sinf, guruh) sanaladi. **Jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi.** Ushbu bosqich jamoa faollarining pedagog talablarini qo‘llab-quvvatlashi hamda o‘z navbatida uning o‘zi bu talablarni jamoa a’zolari zimmasiga qo‘yishi bilan tavsiflanadi. **Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichi** jamoa faoliyatida anchagina sermahsul hisoblanadi. A.S.Makarenkoning aniqlashicha, bu davrda butun jamoa «ayrim o‘zini chetga olib qoluvchi, injiq shaxs» larga talab qo‘ya boshlaydi. Jamoa hayotidagi uchinchi bosqich, ijtimoiy fikr mavjudligi bilan ifodalanadi. **Jamoa rivojlanishining to‘rtinchi bosqichi.** Bu bosqich uchinchi bosqichning bevosita davomi boiib, uning

barcha a'zolari jamoa oldida turgan talablar asosida o'z-o'zlariga talablar qo'ya olishlari bilan

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim berish jarayonida jamoaning o'rni muhimdir. Ba'zi bolalar yakka holda rivojlansa, ba'zilari jamoada yuksaladi. Pedagoglar buni o'z vaqtida aniqlab o'quvchilarni o'zlari uchun qulay va foydali bo'lgan jamoaga biriktirishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Pedagogika (pedagogika nazariyasi tarixi).J.Hasanboyev va boshqalar -Toshkent: «Noshir», 2020.
2. Farsaxonova D.R. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'zaro bog'liq jihatlari //Xalq ta'limi. Toshkent, 2007
3. Ismoilova Z. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. - Toshkent, «Istiqlol», 2003.
4. Munavvarov A. K. Pedagogika. Toshkent, «Kamalak», 1991.